

## INTEGRATIV YONDASHUVNING MAZMUN-MOHIYATI VA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING IJODIY-METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDAGI IMKONIYATLARI

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada integrativ yondashuvning mazmun-mohiyati va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari, ijodiy va metodik kompetentlilikning strukturaviy tarkibini aniqlashtirib, har ikki faoliyat turiga xos bo'lgan xususiyatlarni ajratib olish hamda ularning integratsiyasini amalga oshirish orqali mazmun tushunchani majmuaviy tizim sifatida yangi xossalarni yuzaga chiqarishdek vazifani bajarishimiz mavzuning muammoasi sifatida ochib berishga harakat qilingan.

*Kalit so'zlar:* kompetentlilik, integratsiya, integrativ yondashuv, tajriba, ta'lim, qobiliyat, shart-sharoit.

### СУЩНОСТЬ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА И ЕГО ВОЗМОЖНОСТИ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКИ-МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

*Аннотация.* В данной статье раскрыты содержание и сущность интегративного подхода и возможности развития творчески-методической компетентности будущих учителей начальных классов, уточнены структурный состав творческой и методической компетентности, выделены особенности, характерные для обоих видов деятельности и осуществляя их интеграцию. Была предпринята попытка раскрыть проблемность темы, выполнить задачу раскрытия новых свойств понятия содержания как сложной системы путем ее увеличения.

*Ключевые слова:* компетентность, интеграция, интегративный подход, опыт, образование, способности, условия.

### THE ESSENCE OF THE INTEGRATIVE APPROACH AND ITS POSSIBILITIES IN DEVELOPING THE CREATIVE-METHODICAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

*Abstract.* In this article, the content and essence of the integrative approach and the possibilities of developing the creative-methodical competence of future primary school teachers, clarifying the structural composition of creative and methodical competence, distinguishing the features characteristic of both types of activity and carrying out their integration. It was tried to reveal the problem of the topic, to perform the task of revealing the new properties of the concept of content as a complex system by increasing it.

*Key words:* competence, integration, integrative approach, experience, education, ability, conditions.

Ta'limning barcha bo'g'inlarini tubdan takomillashtirishga qaratilgan islohotlar rejali olib borilayotgan bugungi kunda ta'limni tashkil etishning faqat ichki imkoniyatlaridan foydalanish bilan cheklanib qolmasdan, o'qitish mazmun-mundarijasi va tashkil etilish usullariga nisbatan yangi texnologik yondashuvlarni joriy etish talab etilmoqda. Shu jihatdan qaraydigan bo'lsak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy-metodik kompetentliligini rivojlantirishda integrativ yondashuvning joriy etilishi mazkur talab doirasida qo'llanilgan tadbir o'laroq, katta ahamiyat kasb etadi.

Bu zaruratning yuzaga kelishiga zamin yaratgan bir qator omillar borki, ulardan eng asosiyilari zamonaviy jamiyatning talablari hamda texnika taraqqiyotining hosilasi sifatida ta’limga “Informatika va hisoblash texnikalari”, “Axborot texnologiyalari”, “Kompyuter va AKT vositalari”, “Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi” kabi bir qator yangi o‘quv fanlarining kirib kelganligi bilan bog‘liqdir. Shuningdek, ekologik madaniyat va ijod mahoratini takomillashtirishni nazarda tutuvchi kurslar, tegishli o‘quv fanlari doirasidagi mavzular ham o‘qitish mundarijasida o‘z barqaror o‘rniga ega bo‘lib bormoqda. Bu voqeliklar an’anaviy o‘quv fanlariga ajratilgan dars soatlarida axborot zichligiga erishishni talab qiladi. An’anaviy ta’limda uch turdagи maqsad qo‘yish hamma o‘qituvchilar amal qiladigan tartibga aylangan. Biroq, pedagogik integratsiyada bu maqsadlar bilan bir qatorda metodik, tashkiliy va iqtisodiy maqsadlar ham qo‘yilishi maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, dars jarayonini pedagogik ilm asosida tashkil etish uchun uning eng kamida to‘rtta – didaktik, metodik, mantiqiy-psixologik va motivatsiyaviy tuzilmalari o‘rtasida o‘zaro muvofiqlik yaratish lozim bo‘ladi [1].

J.Xasanboyev muallifligida chop etilgan “Pedagogika fanidan izohli lug‘at”da “integratsiya” tushunchasi bevosita “jamlash”, “umumlashtirish” so‘zlaridagi ma’no bilan bog‘liq bo‘lib, ta’limdagi rivojlanish jarayonining avvaldan ma’lum bo‘lgan vosita va usullarini jamlash, umumlashtirishni anglatuvchi atama ekanligi, shuningdek, uning samaradorligi rivojlanishni ta’minlovchi vosita va elementlarning aloqadorlik darajasiga bog‘liq ekanligi qayd etiladi [2].

Y.A. Komenskiy o‘zining “Buyuk didaktika” asarida “O‘zaro aloqador bo‘lgan hamma narsalar xuddi shunday bog‘liqlikda o‘rgatilishi lozim”, deb yozgan edi [3]. Fanlararo aloqadorlikning turli-tuman ekanligini va ulardan o‘rinli foydalanishning ahamiyati haqida yozib, I.G. Pestalotsi shunday degan edi: “Narsalar tabiatda qanday o‘zaro bog‘liqlikka ega bo‘lsa, ularni tasavvurda xuddi shunday gavdalantirish lozim”.

Maqolada muammoga doir adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish va tahlil etish; modellashtirish, pedagogik eksperiment; natijalarni matematik va statistik tahlil etish kabi ilmiytadqiqot metodlaridan foydalanilgan.

“Integratsiya” so‘zining ma’nosи differensiya tushunchasiga antonimik nisbatda bo‘lib, bu nisbat ularning o‘quv jarayonida uyg‘unlikda qo‘llanilishining mohiyatini ham belgilab beradi. YA’ni integratsiya – murakkab tuzilmaviy tarkibga ega bo‘lgan obyektning alohida komponentlarini yaxlit tuzilma sifatida umumlashtirishni anglatgani holda, differensiya mazkur obyektning komponentlarini alohida ko‘rib chiqishdan iboratdir [4].

B.A. Axlibinskiyga ko‘ra, integratsiya – turli elementlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlovchi jarayon bo‘lib, buning natijasida integrativ (“qorishma”) xususiyatiga ega bo‘lgan xossalarning shakllanishiga erishishdir. Muallifning fikricha, integratsiya joriy etilishining uchta darajasi mavjud bo‘lib, ular quyidagilardir:

- avval o‘zaro aloqador bo‘lmagan elementlar, obyektlar yoki hodisalar o‘rtasida bog‘liqliknинг o‘rnatalishi;

- ma’lum funksiyalarni bajarishga qaratilgan integrativ elementlar, hodisalar va obyektlar o‘rtasida avvaldan mavjud aloqadorliklarning barqarorlashishi;

- faol ijodiy faoliyatni ta’minlovchi elementlar va komponentlarga xos bo‘lgan barcha xossalarning umumlashtirilishi hamda bu xossalarning alohida xossalari yig‘indisidan ijobiy tafovutga ega bo‘lishi [5].

Ta’limdagi integrativ yondashuvning tub negizini tashkil etuvchi pedagogik integratsiya haqida gap ketganda, aytish lozimki, Y. Y. Suxarevskayaga ko‘ra, bu jarayon o‘zining bir qator xususiyatlariga ega. Jumladan:

- o‘zaro bog‘liqligi bo‘lmagan elementlarning bir-biriga ta’sir etuvchi xossalarni aniqlashtirish va natijada bu elementlarning umumiyy maqsad uchun barqaror aloqadorligiga erishish;

- elementlar o‘rtasidagi bog‘liqliknинг xususiyatlarini aniqlashtirish;

- umumlashtirilgan elementlardan iborat majmuuning yaxlit tizimga aylantirish va bu tizim bajaradigan vazifalarning har bir element alohida holda bajargan funksiyalari yig‘indisidan qamrov jihatdan kengligini ta’minalash;

- shakllantirilgan tizimda yangi, ilgari mavjud bo‘lmagan xossalarni yuzaga chiqarish va ularning amaliy sharoitlarda namoyon bo‘lishi uchun tegishli muhit yaratish [6].

Integrativ yondashuvning negizi sanalgan pedagogik integratsiya o‘qitish, ta’lim-tarbiyaga oid barcha komponentlar, vositalar, elementlarning o‘zaro bog‘liqligiga erishish va bu jarayonning natijasi sifatida yangi xossalarga ega bo‘lgan tizim yaratishdan iboratdir. Bu fikrni yanada mufassallashtirish

156

uchun turli mutaxassislarning "pedagogik integratsiya" tushunchasiga bergan ta'riflariga to'xtalib o'tamiz. Demak, pedagogik integratsiya:

1. O'zaro bog'liqlik o'rnatilayotgan obyektlarning mavjud xossalari namoyon etilishi, yuzaga chiqarilishi uchun muhit yaratishga qaratilgan aloqadorlikning eng yuksak ko'rinishidir.

2. Ta'lim oluvchilarni o'qitish tizimining identifikasiyalashtirishga qaratilgan pedagogik jarayon maqsad, vosita, tashkil etilish metod, shakl hamda vositalari, tamoyillari, mazmun-mundarijasi va boshqa komponentlari birligini, uyg'unligini ta'minlovchi bog'liqlikning eng oliy shaklidir.

3. Pedagogik jarayonning turli komponentlari o'rtasida o'zaro aloqadorlik o'rnatish orqali ahamiyatli pedagogik birliklarni yaratish jarayonidir [7].

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining umumiyligi, kasbiy va maxsus fanlarni o'zlashtirishida integrativ yondashuvdan foydalanishning asosiy maqsadlariga quyidagi maqsadlarni kiritish mumkin:

-bo'lajak mutaxassisda fuqarolik ongini shakllantirish va rivojlantirish;

-ta'lim oluvchi o'zligini shakllantirish uchun ijtimoiy-pedagogik va kommunikativ muhit yaratish;

-ta'lim oluvchi ijtimoiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy meyorlar asosida zarur bilimlarni olishlarini ta'minlash;

-ta'lim oluvchida loyihalash, tadqiqotchilik, refleksif, kommunikativ va boshqa mahoratlarni shakllantirish hamda davomli rivojlantirish;

-ta'lim oluvchinin kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini tarbiyalash va hokazo [8].

Integrativ yondashuvning fanning o'zidagi darajada joriy etilishi ta'lim oluvchilarning bilish, ta'lim oluvchi shaxsnинг ijtimoiylashuv kabi jarayonlarning faollashuvidan iborat natijani ta'min etadi. Har bir mavzuga oid o'quv materiali o'zlashtirilishida avval o'tilgan mavzular integratsiyalashtirilganda, ta'lim oluvchida mavjud bilimlar faollashadi. Masalan, "Pedagogika" majmuasiga kiruvchi fanlar doirasida "Ta'lim – jamiyat ravnaqiga olib boruvchi yo'ldir" mavzusi o'rganilganda "Ta'lim: kecha va bugun" hamda "Ta'limning istiqbollarli" kabi mavzularning integratsiyasi nazarda tutiladi. Bunda ta'lim oluvchi bir vaqtning o'zida fanning o'zidagi (uchta mavzuning) va fanlararo (pedagogika-tarix) darajadagi integratsiyani qo'llaydi. Ta'limning o'tgan asrdagi muammolari bilan bugungi ta'lim erishgan natijalarini qiyosiy tahlil qilish orqali ta'limning istiqbollarli xususida yorqin tasavvurga ega bo'ladi. Shuningdek, integratsiyalashtirilgan mavzular doirasida jamiyat ravnaqiga ta'sir etuvchi omillarning ta'lim sohasidagi talqinlari, ijtimoiy sharoitlar bilan ta'lim ravnaqi o'rtasidagi bog'liqliklar, ta'limdagi sog'liqni saqlash tamoyillari va ekologik omillarning o'zaro aloqadorligi haqida aniq xulosalar chiqarish ko'zda tutiladi. Fan ichidagi darajada integratsiyani amalga oshirish jarayonida internet manbalari, videolavhalar, muammoli vaziyatlar, bilihga oid topshiriqlardan muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni mustahkamlash qismida o'qituvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasida refleksiv baholash munosabatlarining o'rnatilishi ham integratsiya joriy etishining samaradorligini ta'minlaydi [9].

Fan ichidagi darajada integrativ yondashuvda o'rganilayotgan mavzuga oid asosiy masalalarni o'zlashtirish qator tamoyillar va metodik qoidalarga asoslanadi. Bu tamoyillar tizimlilik, yaxlitlik, rivojlanib borish, omillilik, ijobiylik va doimiylik tamoyillaridir.

Fan ichidagi darajada integrativ yondashuv masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'p bo'lishiga qaramay, o'quv fanlari mundarijasi, maxsus elektiv kurslardagi tarbiyaviy potensiallarini yangi axborot texnologiyalari bilan uyg'unlikda integratsiya qilish imkoniyatlari ochib berilmagan [10].

**Xulosa** qilib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'qituvchining ijodiy-metodik kompetentliligini rivojlantirish boshlang'ich ta'lim tizimiga davlat va jamoatchilik tomonidan qo'yilayotgan zamonaviy talablar va ijtimoiy ehtiyojlarga javob sifatida qaralmog'i lozim.

Shu bois, integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentliligini rivojlantirish ga oid materiallarning an'anaviy ta'lim mazmunida jamlanishi bilan bog'liq sharoitlar ham hisobga olinishi lozim. Bu vazifa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashga qaratilgan ta'limiy dastur va o'quv reja doirasidagi barcha fanlar darajasida amalga oshiriladi hamda shu asosda integrativ yondashuvni joriy etishga qaratilgan o'quv harakatlarining algoritmi ishlab chiqiladi. Bu algoritmgaga pedagogika yo'nalishidagi OTMdagi butun o'quv jarayoni davomida amal qilinadi.

1. Данилюк Д.Я. Учебный предмет как интегрированная система. // Педагогика. – 1997. – № 4. – С. 24–28.
2. Хасанбоев Ж., Тўрақулов Х.А, Хайдаров М., Хасанбоева О., Усмонов Н.Ў. Педагогика фанидан изоҳли лугат.– Т.: —Фан ва технология, 2009, 672 б.
3. Коменский Я.А. Избранные педагогические сочинения / Я.А. Коменский; под ред. А.А. Красновского. – М.: Учпедгиз, 1955. – 651 с
4. Лукин Ю.А. О сущности педагогической интеграции. Перспективы науки и образования, 2019, №2 (38), С-64.
5. Акхабинский Б.А. Категориальный аспект понятия “интеграция” // Проблемы диалектики. Вып. 12. Изд-во ЛГУ, 1984, С.36
6. Сухаревская Е. Ю. Интегративное обучение в начальной школе – Ростов на Дону, Феникс, 2003, С. 126
7. Салманова Д.А., Гаджиев. Р.Д. Межпредметная интеграция как условия модернизации педагогического образования// Инновация и образование, 2016, №4, С.96.
8. Ларионова И.А. Интегративные тенденции в профессиональной подготовки специалистов социальной сферы, автореферат доктора пед. наук М: 2009
9. Беляева А.П. Интегративно-модульная педагогическая система профессионального образования / А.П.Беляева – СПб, 1997
10. Abduraimovna D. S. (2023). Types of reflexive learning technologies in the pedagogical education system. Open Access Repository, 4(03), 31-40.
11. Уралова М. (2023). Bo'lajak boshlang'ich sinf o 'qituvchisining ijodiy-metodik faoliyatini takomillashtirish. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(11).
12. Уралова Мухабата Санджаровна. (2023). Подготовка будущих учителей начальных классов к творчески-методической деятельности на основе интегративного подхода. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(3), 390–393.